



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 йил 12-апрель, № 75 (8970)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TURIZM SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR

fan va amaliyot integratsiyasi asosida tayyorlanadi

So'nggi yillarda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor tufayli ushbu yo'nalishda tub o'zgarishlar kuzatilmoqda. Yaratilayotgan har tomonlama qulayliklar esa yildan-yilga sayyohlar sonini oshirish va pirovardida aholi bandligini ta'minlashda ham qo'l kelayotir. Albatta, yutuqlar o'zimizniki. Ammo turizm salohiyatini yanada oshirish uchun bizda imkoniyatlar hali juda ko'p.

Davlatimiz rahbari tomonidan shu yil 7-fevral kuni xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha o'tgan yilda amalga oshirilgan ishlar hamda joriy yil uchun asosiy vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham 2024-yili turizm xizmatlari

eksporti 3,5 mlrd. dollar bo'lgani, lekin bu imkoniyatlarimizga mos emasligi qayd etildi. Masalan, Malayziya va Indoneziyada Naqshbandiya tariqatining 7 millionga yaqin izdoshlari bor. Ular Umraga borishdan oldin ziyoratgohlarimizga sayohat qilishni

istaydi. Bu sayyohlarni Kuala-Lumpur yoki Jakartadan Samarqand va Buxoroga kamida 2 kunga olib kelib, keyin o'zimizning samolyotda Umraga yuborish uchun barcha sharoit mavjud. Shundan kelib chiqib mutasaddilarga Malayziya va Indoneziya ziyoratchilari uchun "Umra plus" turpaketini yo'lga qo'yish topshirildi.

Qolaversa, Shahrisabzda "Oqsaroy", Xivada "Ichon qal'a", Buxoroda "Labi hovuz", Toshkentda "Yangi O'zbekiston" maydonlari bo'lsa-da, ularda konsert,

ko'rgazma, forumlar o'tkazish bo'yicha reja qilinmagani ko'rsatib o'tildi. O'zimizdagi 6 ta turistik markazda xalqaro darajadagi san'atkorlarning konsertlari tashkil etilsa, mehmonxona, restoran, kafe, savdo hamda xizmat ko'rsatish obyektlari sayyohlar bilan to'lishi aniq. Shu munosabat bilan mutasaddilarga kamida 1 mln. turistni olib keladigan konsert, biznes forumi va ko'rgazmalar o'tkazish dasturini ishlab chiqish yuklatildi, bu ham soha taraqqiyotini ta'minlaydi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Norma ijodkorligi:

XALQCHILLIK VA ZAMONAVIY YONDASHUV — USTUVOR MAQSAD

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 20-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisidagi nutqida parlamentning qonun ijodkorligi, parlament nazorati yo'nalishidagi faoliyatining samaradorligini yanada oshirish maqsadida vazirlik va idoralarda rahbar o'rinbosarlarini quyi palata qo'mitalari bilan doimiy hamkorlik uchun mas'ul etib biriktirish taklifini ilgari surgan edi.

Kecha "Qonun ijodkorligi jarayoni sifatini oshirishning dolzarb vazifalari" mavzuida o'tkazilgan seminar shu haqda so'z yuritilib, bu borada qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari va quyi palata qo'mitalari o'rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Unda Qonunchilik palatasi deputatlari,

Vazirlar Mahkamasi, Oliy sud, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi mutasaddilari hamda qonunlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etadigan vazirlik va idoralarda vakillari qatnashdi.

Qonun ijodkorligi quyi palata faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan bo'lib, ushbu jarayonning sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor

vazifalaridan biriga aylangan. O'tgan davrda mazkur tizimning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, Qonunchilik palatasining Harakat dasturi tasdiqlandi. Qonun ijodkorligi, parlament nazoratini amalga oshirish, aholini tashvishga solayotgan muammolarni o'rganish, tahlil qilish va bartaraf etishda yuqoridagi hamkorlikka asoslanadigan mutlaqo yangi tizim amaliyotga joriy qilindi. Quyi palata qo'mitalariga tegishli sohalar bo'yicha vazir o'rinbosarlari biriktirildi.

Seminarda qayd etilganidek, so'nggi yillarda qabul qilinayotgan qonunlarning mamlakatda

amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirilgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifati tubdan takomillashtirildi, qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlarining bu jarayondagi mas'uliyati kuchaytirildi. Shuningdek, "Normativ-huquqiy hujjatlar qonun qabul qilindi. Yangi tahrirdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun bilan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishning aniq tartibi belgilandi.

Munosabat

DUNYO HAMJAMIYATINI EZGULIKKA UNDAGAN NUTQ

Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasida davlatimiz rahbarining nutqida ilgari surilgan muhim tashabbuslar anjuman qatnashchilari tomonidan iliq kutib olindi va yuksak baholandi.

Misol uchun, Parlamentlararo Ittifoq Prezidenti Tuliya Ekson davlatimiz rahbarining nutqi Toshkent deklaratsiyasining asoslaridan biriga aylangan, yangi O'zbekiston ayni paytda nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoda o'z so'zi va qat'iy pozitsiyasiga ega bo'lib borayotgani va ushbu yutuqlarning asosiy muallifi Prezident Shavkat Mirziyoyev ekanini e'tirof etdi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida xalqaro munosabatlarda o'zaro ishonch va muloqot madaniyatini mustahkamlash masalasiga alohida urg'u berdi. Bu esa ayni paytda dunyodagi geosiyosiy taranglik va qarama-qarshiliklarni yumshatishda muhim ahamiyat kasb etadi, albatta.

KORRUPSIYA — TARAQQIYOT ZAVOLI

unga qarshi kurash har birimizning vazifamiz

Davlatimiz rahbari korruptsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda yurtimizda korruptsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha ishlarga baho berib, kelgusi vazifalarni aniq belgilab berdi.

Yig'ilishda e'tirof etilganidek, yurtimizda korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha aniq tizim yaratildi, alohida qonunlar qabul qilindi.

Parlament palatalarida mas'ul qo'mitalar, Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash va agentlik tashkil qilindi.

GLOBAL HAMKORLIKNING MUSTAHKAM PLATFORMASI

Parlamentlararo Ittifoqning yubiley assambleyasiga mezbon etib aynan O'zbekistonning tanlanishida chuqur ramziy ma'no bor. Bu — so'nggi yillarda o'zbek parlament diplomatiyasi amaliy harakatga aylangan xalqaro e'tirofi. Zotan, qonun ijodkorligi, parlament nazorati va shu kabi yo'nalishlardagi milliy tajribamiz dunyo hamjamiyati va parlamentariylari hamda jamoatchiligi tomonidan keng e'tirof etilayotgani ko'plab yirik platformalarda tilga olinmoqda.

Birgina yirik kompaniyalarning O'zbekistonga qiziqishi ortayotgani, 2024-yilda 34,9 mlrd. AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilib, 2023-yildagiga nisbatan qariyb 1,6 barobar o'sish ta'minlangani ham mamlakatimizda qonun ustuvorligiga bo'lgan ishonch mustahkamlanganidan dalolatdir. Iqlim o'zgarishiga, bevosita ekologiyaga borib taqaladigan barcha masalalarga O'zbekistonda davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratilayotgani ham Ittifoq maqsadlarining uzviy qismi hisoblanadi.

Ko'ppartiyaviylik doirasida Ekologik partiya tuzilgani va anachdan buyon mamlakatimiz siyosiy jarayonlarining faol ishtirokchisi ekanini, izchil o'tkazib kelinayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi, Orolbo'yiga dunyo hamjamiyati e'tiborini qaratish yo'lidagi sa'y-harakatlar va boshqa ko'plab misollarni keltirish mumkin. Davlatimiz rahbari Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasidagi nutqida davrimizning o'tkir muammosiga aylangan, sayyoramiz taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'layotgan iqlim o'zgarishlari

doimo diqqatimiz markazida bo'lishi kerakligini, chunki uning ayanchli oqibatlari, eng avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlarga kuchli ta'sir ko'rsatayotganini alohida ta'kidlagani bejiz emas. Binobarin iqlim o'zgarishlarining oldini olish va atrof-muhitni asrab-avaylash bugun kun tartibidagi eng muhim masalalardan biri sanaladi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbari aytganidek, Parij bitimi doirasida va ugerod neytralligiga erishish borasida o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini to'liq bajarish har qachongidan ham muhimdir.

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

Nigoh

MA'RIFAT IONKUYARI, YOSHLAR HOMIYSI

Samarqand shahrida bo'lib o'tgan tarixiy ahamiyatga ega muhim siyosiy voqea — "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti ikki mintaqahamkorligini mutlaqo yangi bosqichga ko'tardi. Yuqori darajadagi uchrashuvlar, tashabbus va kelishuvlarga boy bo'lgan mazkur tadbir O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqidan sarmoya va texnologiyalarni jalb qilish, jahon miqyosida o'z o'rnini yanada mustahkamlash uchun noyob imkoniyat yaratdi, mintaqamizdagi har bir fuqaroning kundalik hayotida aks etadigan amaliy natijalar berdi.

Jumladan, sammit doirasida qabul qilingan qarorlar, ilgari surilgan tashabbuslar qator muhim yo'nalishlarda — ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy o'sishga ko'maklashish, mahalliy mahsulotlarni Yevropa bozorlariga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, "yashil" energetika hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash, transport va hududiy bog'liqlikni mustahkamlash,

sayyohlik va madaniy almashuvni kuchaytirishni ko'zda tutadi. Ta'kidlash joizki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yevropa Ittifoqi bilan "MO+YI" ko'rinishida rasmiy sammitni yo'lga qo'yish tashabbusi mintaqamiz ijtimoiy-siyosiy xaritasini yangi ranglar bilan boyitdi. Ikki mintaqahamkorligi o'rtasidagi savdo-sotiq, madaniy-ma'rifiy sohalarida buyuk Amir Temur davridagi aloqalar qayta tiklandi.

O'ZBEKISTON OVOZI BARALLA YANGRADI

Poytaxtimizda o'z ishini muvaffaqiyatli yakunlagan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi nafaqat parlamentlararo muloqot maydoni sifatida, balki jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan dolzarb masalalar yuzasidan sog'lom qarash va yechimlarni ilgari surish, keng qamrovli siyosiy yondashuvlarni muhokama qilish imkonini beruvchi muhim siyosiy voqelik sifatida tarixda qoladi, desak, yangilishmaymiz.

Assambleya doirasida bo'lib o'tgan muhokamalarda Prezidentimiz ilgari surgan qator tashabbuslar parlamentlararo munosabatlardagi yangi bosqichni boshlab berishi muqarrar. Davlatimiz rahbari o'z nutqida jahonning turli mintaqalaridagi nizolar global va mintaqaviy tinchlik hamda xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgan bir davrda O'zbekiston har qanday ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat diplomatiya, tinch muzokaralar yo'li bilan hal qilishning qat'iy tarafdori ekanini qayd etdi. Xususan, qo'shni Afg'onistonning xalqaro maydonda yakkalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik, amaldagi hukumat bilan konstruktiv muloqot o'rnatish, afg'on zaminiga Markaziy Osiyo mintaqasining ajralmas qismi va yangi imkoniyatlar makoni sifatida qarash lozimligiga e'tibor qaratib, ushbu dolzarb maqsadlarni amalga oshirishda parlamentlar ko'magiga ishonch bildirildi.

Mamlakatimiz rahbari xotin-qizlar huquqlarini mustahkamlash, ularning siyosiy jarayonlardagi ta'siri va ulushini oshirish muhimligiga to'xtalar ekan, milliy parlamentimizda ayollarning hissasi bugungi kunda 38 foizga yetgani, mazkur ko'rsatkich Parlamentlararo Ittifoq tomonidan yuksak e'tirof etilib, Osiyo mintaqasida so'nggi o'ttiz yilda eng yuqori o'sish sifatida baholanganiga bizga alohida mamnuniyat bag'ishlashini ta'kidladi.

Uchrashuv

Gender tenglikni mustahkamlash istiqbollari

Kecha Senatning Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orzigul Qozixonova Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) Bosh kotibi ofisining gender tenglik masalalari bo'yicha katta maslahatchisi Lara Skarpitta bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda tomonlar hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini, xususan, jamiyat hayotining turli sohalarida yosh xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalalarini muhokama qildi.

Joriy yilning 8 — 10-aprel kunlari Toshkent shahrida YXHTning "Gender tenglik yo'lida innovatsiyalar va tarmoq integratsiyasi orqali kompleks xavfsizlikni mustahkamlash" loyihasi doirasida tashkil etilgan "Tinchlik yo'lida yosh ayollar tashabbusi: Markaziy Osiyo yosh ayollarini qo'llab-quvvatlash" mavzuidagi o'quv-ma'rifiy tadbir yakunlariga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, gender tenglik bo'yicha hamkorlikning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi va kelgusidagi istiqbolli yo'nalishlar belgilab olindi.

Lara Skarpitta O'zbekistonning demokratik islohotlarni amalga oshirish borasidagi sa'y-harakatlarini yuqori baholab, jamiyatni o'zgartirish jarayonida parlamentning roli ortib borayotganini ta'kidladi. Shuningdek, u inson huquqlari va demokratik o'zgarishlar sohasida umumiy maqsadlarga erishish uchun YXHT va O'zbekiston o'rtasidagi sheriklikni yanada rivojlantirish muhimligini qayd etdi.

Uchrashuv yakunida tomonlar gender tenglikni mustahkamlash va xotin-qizlarni, ayniqsa, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shma tashabbus va loyihalarini davom ettirish niyatini tasdiqladi.

"Xalq so'zi".

MAʼRIFAT JONKUYARI, YOSHLAR HOMIYSI

Albatta, mustaqillik yillarida biz koʻpdan-koʻp loyihalarni, balandparvoz chaqiriqlarni koʻrganmiz, eshitganmiz. Biroq Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi oʻrtasidagi hamkorlik sari tashlangan qadamlar – bu shunchaki gap emas. Buni koʻhna va navqiron Samarqandda oʻtgan yirik sammit doirasida imzolangan kelishuvlar, ilgari surilgan taklif va tashabbuslar, Yevropa Ittifoqi tomonidan oʻzaro manfaatli loyihalar uchun ajratilgan 12 milliard yevrolik mablagʻ ham isbotlab turibdi. Prezidentimiz bu bilan dunyoning Oʻzbekistonimizga, mintaqamizga ishonchini tikladi. Buni, hech istisnosiz, Shavkat Mirziyoyev fenomenini va yangi Oʻzbekistonga boʻlgan ishonchning amaliy ifodasi deyishimiz mumkin. Yurtimizda oʻtkazilayotgan har bir tadbir, har bir marosim, har bir uchrashuv Prezidentimizning “biz ergashuvchi emas, ergashtiruvchi boʻlishimiz kerak”, degan gʻoyalarga mos kelishi bilan qalbimizda iftixor uygʻotadi.

Samarqand sammiti ortidan Toshkentda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi oʻtkazilishi Oʻzbekiston uchun ham, butun mintaq uchun ham nihoyatda



assambleyasida nutq soʻzlab, parlamentarizm global siyosatda qudratli vosita sifatida muhim ahamiyatga ega ekanini taʼkidladi. Haqiqatan, aynan parlamentlar xalqlarni bogʻlovchi, oʻzaro totuvlik va chinakam hamjihatlikni rivojlantiruvchi koʻpriklarni qurib beradi. Prezidentimiz nutqida jahon hamjamiyatini yanada rivojlantirish va sayyoramizda barqarorlikni taʼminlashda muhim ahamiyatga ega boʻlgan masalalar koʻrsatib berildi. Bu barcha davlatlar siyosiy manfaatlarini aks ettirishi bilan bir qatorda, insoniyat oldida turgan muhim muammolarni hal qilishga qaratilgan bilan ahamiyatli.

Taʼkidlash joizki, soʻnggi oʻn yilliklarda dunyo qator global muammolarga duch keldi. Jumladan, qurolli toʻqnashuvlar, terrorizm

tahdidlari, ekologik ofatlar va iqtisodiy inqirozlar kabi keskin holatlar yuz berdi. Bunday sharoitda barcha mamlakat parlamentlari tinchlik va xavfsizlikni saqlashda faol ishtirok etishi juda muhim. Xususan, diplomatiya va muzokaralar xalqaro kelishmovchiliklarni hal etishning asosiy vositasiga aylanishi kerak. Oʻzbekiston har qanday ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat diplomatiya va tinch muzokaralar yoʻli bilan hal etishning qatʼiy tarafdori. Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda, eng ogʻirli muammolarga xalqaro huquqning umumeʼtirof etilgan meʼyorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi va rezolyutsiyalari asosida yechim topish muhim.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, iqlim oʻzgarishlariga qarshi kurash, kambagʻallikni qisqartirish, gender tenglikni taʼminlash, inson haq-huquqlarini himoya qilish barobarida yoshlarning jamiyat hayotining barcha jabhasida toʻlaqonli ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shu maqsadda ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, parlamentlar uchun yangi avlodni tarbiyalash, bu borada samarali xalqaro hamkorlikni yoʻlga qoʻyish muhimligi yuzasidan ham fikr bildirib, oʻz taklif va tavsiyalarini ilgari

surdi. Parlamentlararo Ittifoq tizimi doirasida Yoshlar parlamentlari global platformasini tashkil etish va uning taʼsis forumini Oʻzbekistonda oʻtkazish taklifi bildirilgani ham bejiz emas. Zero, yoshlar – ertangi kun egalari.

Meni quvontirayotgan narsa shuki, Prezidentimiz qaysi uchrashuv yoki tadbir boʻlmasin, yoshlar manfaatlarini ilgari suradi. Bugun yangi Oʻzbekistonda Uygʻonish maʼrifati, Rennessans mashʼali koʻtarilayotgan ekan, bu jarayonlarni yoshlariz tasavvur etib boʻlmaydi. Zero, bu gʻoyalar millat tafakkuridagi tarqoqlikni bartaraf etib, yoshlarni iqtidorli yaratuvchi kuchga, qudratli toʻlqinga aylantiradi. Biz bugun hayotimizda ana shu toʻlqin epiklarini sezmoqdamiz, unga kuch berish esa har birimizga bogʻliq. Avvalo, shuni anglab olishimiz kerakki, qaysiki davlat yuksak taraqqiyotga erishgan boʻlsa, bu faqat taʼlimga eʼtibor, ilm-fanni rivojlantirish samarasida sodir boʻlgan va bunga tarixda misollar koʻp.

Mana, nima uchun Prezidentimiz kuyinyapti, dunyoning manaman degan davlatlari bilan taʼlim, ilm-fan sohasida manfaatli kelishuvlarga erishishga intilyapti.

Oqil SALIMOV, akademik.

DUNYO HAMJAMIYATINI EZGULIKKA UNDAGAN NUTQ



Ayni chogʻda Prezidentimiz barqaror rivojlanish, iqlim oʻzgarishi, ozigʻovqat xavfsizligi, inson huquqlari va gender tenglik masalalariga alohida toʻxtalib oʻtdi. Taʼkidlash joizki, global muammolarga bunday keng qamrovli va konstruktiv yondashuv Oʻzbekistonning xalqaro maydonda faol va masʼuliyatli ishtirokchi ekanligini yana bir bor namoyon etdi. Zotan, Toshkent deklaratsiyasi mohiyatida ham ushbu tamoyil mujassam, desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Yaʼni hujjatda parlamentlar global muammolarga faol yondashib, birgalikda yechim topish orqali ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqaror rivojlanishga xizmat qilishi belgilangan.

Shuningdek, nutqda yoshlar masalasiga alohida urgʻu berilib, ularning siyosiy, ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini taʼminlash borasida ham istiqbolli tashabbuslar ilgari surildi.

Xususan, milliy parlamentlar hamda Ittifoq faoliyatiga yoshlarni jalb qilish, doimiy muloqotni kuchaytirish zarurligi taʼkidlandi. Ahamiyatli, Parlamentlararo Ittifoq tizimi doirasida Yoshlar parlamentlari global platformasini tashkil etish va uning taʼsis forumini Oʻzbekistonda oʻtkazish taklif qilindi. Bu esa, oʻz navbatida, yosh avlodning parlament faoliyatidagi ishtirokini ragʻbatlantirish gʻoyasi, global miqyosda yangi, zamonaviy va ochiq siyosiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Prezidentining nutqi dunyo hamjamiyatini muloqot va hamkorlikka, umuminsoniy qadriyatlarni himoya qilishga qaratilgan bilan tarixiy ahamiyatga ega, desak, ayni haqiqat. Nutqdagi hayotiy, aniq taklif va tashabbuslar amaliy jihatdan xalqaro siyosatga yangi ijobiy ruh va konstruktiv yondashuv baxsh etmoqda.



Sodiqjon TURDIYEV, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi aʼzosi.

KORRUPSIYA – TARAQQIYOT ZAVOLI

unga qarshi kurash har birimizning vazifamiz



Eng muhimi, jamiyatda korrupsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan shaffof tizim, ochiq muhit yaratildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qilish boʻyicha milliy muassasalar va fuqarolik jamiyati institutlari bilan faol hamkorlikni amalga oshirish, shuningdek, bu sohada axborot-targʻibot ishlarini ragʻbatlantirish mamlakatimizda ustuvor vazifaga aylandi.

Mamlakatda korrupsiyon sxemalar, mehnat qilmasdan tezda boyib ketish borasidagi hoyu-avasalar janriy uzib tashlanmas ekan, davlatimizning har qanday siyosiy, iqtisodiy islohotni hayotga olib kirish, xalqni farovon qilish vazifasi qogʻozda qolib ketaveradi. Ushbu masalada huquq-tartibot idoralari birmuncha hushyor, ziyrak boʻlishi, shuningdek, nodavlat tashkilotlari, turli komissiyalar, jurnalistlar, mustaqil sudlar tizimi faolroq ishlashi va siyosatchilar, sotsiologlar, psixologlar, tarixchilar, davlat hamda jamoat organlari, siyosiy partiyalar, eng muhimi, amaliyotchilar masalani tahlil etish va yechimini topish ustida koʻproq bosh qotirishi lozim.



Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda, “islohotlarimiz natijadorligi, avvalo, sadoqatli, fidoyi va korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodga bevosita bogʻliq. Bu ishda fikri toza yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanishi shart”. Shu jihatdan keyingi yillarda oliy taʼlim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar oʻz natijalarini berayotgani quvonarli. Bu juda katta gap. Negaki, bundan oʻn yillar muqaddam eng korrupsiyalashgan soha xuddi shu tizim edi.

Institut va universitetlarga 2018-yil qabulining adolatlari, oshkor tashkil qilinishi, oʻquv jarayonining zamonaviy kredit-modul tizimiga oʻtkazilishi, professor-oʻqituvchilar oylik maoshining bir necha baravar koʻtarilishi, professional mutaxassislarining davlat tomonidan keng ragʻbatlantirilayotgani natijasida oliy taʼlim tizimida korrupsiya holatlari qariyb bartaraf etildi.

Shuningdek, bugun iqtisodiy-ijtimoiy, pul-kredit sohalarida ham bir talay xayfli ishlar amalga oshirilayapti. Masalan, davlat xaridlari boʻyicha qonun qabul qilinib tanlov va tenderlar raqamlashtirilib, sogʻlom raqobat yuzaga keldi.

Ammo qusurlar ham bor. Bugun har birimiz poraxoʻrlik va korrupsiyaning jirkanch illat ekani, ayrim rahbarlar, shifokorlar, pedagoglar va boshqa kasb egalarining “sovgʻa-salom”ga oʻchligi haqida koʻp gapiramiz, ammo hamma ishing boshida oʻzimiz turganimizni unutib qoʻymiz. Axir farzandimizni ishga joylashga yordam bergan rahbarning yoki yaqinimizni davolagan shifokorning choʻntagiga soʻramasa ham pul qistirib ketayotgani oʻzimiz-ku! Birovdan illat qidiramiz, oʻzimizning kamchiligimizni unutib qoʻymiz. Vaholanki, oʻzimiz oʻzgarmas ekanmiz, jamiyatda oʻzgarish boʻlmaydi, qusurlarimiz “bolalayveradi”.

Bugun holimizga boqmay kimoʻzarga berilib ketayotganimiz ham bor gap. Bu narsa toʻylarimizda, maʼrakalarimizda bor boʻyi bilan namoyon boʻlmoqda. Shuning uchun davlatimiz rahbari yigʻilishda korrupsiyani yengish uchun birinchi navbatda uning ortiqcha hashamat va daddaba degan “oʻq ildizlari”ni quritishimiz shartligini aytdi. Yanada achinarlisi, bunday daddabayu asʼasaga taniqli shaxslar bosh-qosh boʻlyapti, odamlar ularga tenglashaman deb, oʻzini oʻtga-choʻqqa uryapti.

Biz, atrofdaigilar bunday holatlarga befarq, loqayd boʻlar ekanmiz, taraqqiyotga toʻgʻanoq boʻlayotgan bu illatdan xalos boʻlolmaymiz. Uni bartaraf etmas ekanmiz, jamiyat daraxti meva tugib, gurrurak oʻs olmaydi. Kelajak avlod bu daraxtning saxovatidan bahramand boʻlolmaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy va moliyaviy mexanizmlari takomillashtirilayotgani, bu jarayonga jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari jalb qilinishi hamda korrupsiyaning oldini olish boʻyicha idoralararo hamkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan saʼy-harakatlar, albatta, oʻz samarasini beradi. Biroq bu borada huquqni muhofaza etuvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz boʻlmas ekan, taʼsirchan jamoatchilik nazoratini oʻrnatmas ekan, uni tag-tomiri bilan qurita olmaymiz.

Rustam KALANOV,
xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi raisi,
Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashi raisi,
senator.

IJTIMOY ADOLAT VA MUNOSIB MEHNAT TAMOVILLARI

Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi doirasidagi tadbirlarda “Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati” degan umumiy mavzu ostida kambagʻallikni qisqartirish, munosib mehnat, ijtimoiy integratsiya va aholining qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish kabi dolzarb masalalar muhokama etilgani ayni muddao boʻldi. Nega deganda, keyingi yillarda yuz berayotgan tabiiy ofatlar, keskin tus olayotgan iqlim oʻzgarishlari, geosiyosiy taranglik va qurolli mojarolar tufayli dunyoning turli hududlaridagi koʻplab mamlakatlarda kambagʻallik va tengsizlik kuchayib bormoqda.



Fikr

Yuzaga kelgan vaziyat esa aholi bandligini taʼminlash, ularni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ijtimoiy adolatlarni taʼminlashga qaratilgan zarur choralarini belgilab olish va ularni amalga oshirishning aniq, samarali mexanizmlarini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Albatta, bu boradagi mavjud muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish, milliy va mintaqaviy darajada amalga oshirilayotgan amaliy saʼy-harakatlarni birlashtirish, ilgʻor tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash har qachongidan-da muhim hisoblanadi.

Tadbinring yalpi majlislarida, ixtisoslashtirilgan organlar yigʻilishlarida



boʻlib oʻtgan muhokamarlar yakunida qabul qilingan hujjatlarda ilgari surilgan ilgʻor gʻoyalar, tashabbuslar mamlakatlar parlamentlari faoliyatini bugun yuzaga kelgan ana shunday real vaziyatdan kelib chiqqan holda samarali tashkil etish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa dunyoda tinchlikni asrash va taraqqiyot darajasini yuksaltirishda muhim rol oʻynaydi.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, davrimizning ana shunday oʻtkir talablardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda ushbu sohada katta islohotlar amalga oshirilayotir. Xususan, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish davlat siyosatining eng ustuvor yoʻnalishlaridan biri etib belgilandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ijtimoiy davlat tamoyili mustahkamlanib, uning

bu boradagi majburiyatlari uch barobar koʻpaytirildi. Ushbu prinsiplar asosida ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Soha tubdan isloh qilindi, ijtimoiy yordamning aniq, maqsadli va manzillilgini taʼminlashga qaratilgan yangicha yondashuv va mexanizmlar joriy etildi.

Umuman, ayni sohada keng koʻlamli islohotlar boshlangan davrdan beri kambagʻallik darajasi deyarli uch barobar qisqardi. Asosiysi, Oʻzbekiston mazkur yoʻnalishdagi amaliy saʼy-harakatlari bilan ijtimoiy adolat va munosib mehnat tamoyillarini xalqaro doirada ham dadil ilgari surib kelmogʻda.

Oʻz navbatida, bu borada erishilayotgan natijalar xalqaro miqyosda ham munosib eʼtirof etilayotgani bizga faxr-iftixor bagʻishlaydi. Biroq bu borada hali oldimizda koʻplab vazifalar ham borligi rost. Ushbu tadbir ana shunday ustuvor masalalar ijrosi yuzasidan oʻzaro fikr almashish va aloqalarni yanada kengaytirish orqali muammolarga samarali yechim topish imkonini yaratgani bilan yanada ahamiyatli boʻldi.

Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senatining
Mudofaa va xavfsizlik masalalari
qoʻmitasi raisi.

BARQARORLIK, IQTISODIY RIVOJLANISH VA

Bugun Markaziy Osiyoda integratsiya va barqaror taraqqiyot jarayonlari yangi bosqichga kirdi. Bundan sakkiz yil oldin Oʻzbekistonda boshlangan yangi davr butun mintaqani qamrab oldi. Oʻzgarishlar nafaqat davlatlararo munosabatlarda, balki mintaqada yashayotgan xalqlar hayotida ham oʻz aksini topdi.



Mushohada

Hududiy yaqinlik – umumiy taraqqiyot garovi

Ayonki, davlatlar oʻrtasidagi yaqin qoʻshnichilik munosabatlari nafaqat ikki tomonlama manfaatlar, balki umumiy mintaqaviy barqarorlik va rivojlanish uchun ham gʻoyat muhimdir. Bu vujudga kelgan bugungi geosiyosiy vaziyat, qurolli toʻqnashuvlar, kelishmovchiliklarning aksariyati qoʻshni davlatlar oʻrtasida yuz berayotgani fonida ham juda zarurligi bilinmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Markaziy Osiyo Oʻzbekiston uchun tashqi siyosatning ustuvor yoʻnalishiga aylandi. 2016-yildayoq Markaziy Osiyodagi yaqin qoʻshnilar bilan hamkorlikni rivojlantirish Oʻzbekiston tashqi siyosatining asosiy yoʻnalishi sifatida belgilab berildi. Bu siyosiy kurs mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish va umumiy muammolarni birgalikda hal qilishga qaratilgan qoʻshnilarimizda ham katta qiziqish uygʻotdi. 2017-yildan boshlab esa mintaqadagi barcha qoʻshni davlatlar – Qozogʻiston, Qirgʻiz Respublikasi, Tojikiston va Turkmaniston bilan siyosiy muloqot faollashdi.

2018-yil aprel oyidagi Prezident Farmonida oʻrta muddatli istiqbolida mamlakatimizning asosiy xorijiy sheriklar bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari tasdiqlandi. Ushbu hujjatda Oʻzbekistonning davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini uzil-kesil nihoyasiga yetkazish tashqi siyosatimizning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida qayd etilgani bilan katta ahamiyatga ega boʻldi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqinlashuvimiz tashqi siyosatimizdagi konstruktiv, amaliy va xalqlar manfaatiga xizmat qiluvchi yoʻnalishdir. Bunday yondashuv nafaqat chegaralarni, balki qalblar oʻrtasidagi masofalarni ham qisqartirdi.

Dunyoda sodir boʻlayotgan geosiyosiy ziddiyatlar, xavfsizlik muammolari, yirik mintaqaviy mojarolarning hamda barqaror taraqqiyotga nisbatan ijtimoiy va iqtisodiy tahdidlar kuchayayotgan bir davrda Markaziy Osiyoda umummintaqaviy oʻziga xoslikni shakllantirish jarayoni boshlangani katta yutuqimizdir. Zero, oʻzaro birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash, mintaqadagi koʻp qirrali hamkorlikni kengaytirish yoʻlidagi saʼy-harakatlar umumiy taraqqiyotni taʼminlashda muhim omil boʻldi.

Yaqinda Xoʻjand shahrida boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston, Tojikiston va Qirgʻiz Respublikasi yetakchilarining uch tomonlama uchrashuvida Davlat chegarasini delimitatsiya qilish toʻgʻrisidagi shartnoma imzolangan katta tarixiy voqealik boʻldi. Bu barqarorlik va ichkil taraqqiyotni taʼminlashga, butun mintaqaning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilishi, shubhasiz. Doʻstlik stelasiga esa qardosh mamlakatlar oʻrtasida mustahkamlanib borayotgan yaxshi qoʻshnichilik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlarining yangi ramziga aylandi.

Bu voqealik barcha sohalarga va hamkorlik yoʻnalishlariga ijobiy taʼsir qiladi. Zero, mintaqamamlakatlar tabiiy savdo sheriklari boʻlib, ularning milliy iqtisodiyotlari bir-birini toʻldiradi va rivojlantiradi. Oʻzaro savdo hajmini kengaytirish uchun tovar aylanmasida ichki mintaqaviy savdoning ulushi sezilarli darajada oshishiga ijobiy turtki beradi.

Chegaralarning aniq belgilab olinishi, birinchi navbatda, gohi-gohida yuzaga kelgan mojarolar va qurolli toʻqnashuvlarga batamom barham berib, mintaqada toʻlaqonli erkin savdo hududini shakllantirish, madaniy aloqalarni rivojlantirish, integratsiyani kuchaytirish imkoniyatini kengaytiradi.

Oʻzbekiston tashabbuslarining nafaqat mintaqadagi davlatlari yetakchilari, balki oddiy aholi vakillari tomonidan ham keng qoʻllab-quvvatlanayotgani kishini quvontiradi. Shu oʻrinda bir voqeani yodga olaylik: Parijda boʻlib oʻtgan Olimpiada musobaqalarida qirgʻiz sportchisiga

oʻzbek murabbiyi yordam qoʻlini choʻzgani keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Murabbiyning yordami orqali sportchi musobaqani muvaffaqiyatli yakunlab, yaxshi natija qayd etdi. Bu kabi holatlar davlatlar oʻrtasida doʻstona munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etib, umuminsoniy qadriyatlar – oʻzaro yordam, qoʻllab-quvvatlash, ehtirom va doʻstlikning yanada yaxshilanishiga xizmat qilishi muqarrar.

Taʼkidlash kerakki, bungacha ham mintaqadavlatlari oʻz mustaqilligini qoʻlga kiritgan ilk yillarda ham oʻzaro integratsiyalashish boʻyicha bir qator urinishlarni amalga oshirgan edi. Jumladan, oʻsha davrda Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati tuzildi. Ammo ichki va tashqi omillar, davlat rahbarlarining siyosiy qarashlari bu jarayonni toʻliq amalga oshirishga imkon bermadi. Suv-energetika muammolari, transport va aloqa sohasidagi murakkabliklar, xavfsizlikka oid tahdidlar ham vaziyatga oʻz taʼsirini oʻtkazmasdan qolmadi.

Oʻzbekiston tashabbuslari asrlar davomida bir xalq boʻlib jips yashagan davlatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlangani vaziyatni tubdan ijobiy tomonga oʻzgartirdi. Natijada nafaqat chegara bilan bogʻliq masalalar hal etildi, balki savdo aloqalarini ragʻbatlantirish uchun chegaradoli savdo hududlari tashkil etilmoqda, qoʻshma investitsiya jamgʻarmalari ishga tushirilayapti, yirik infratuzilma va sanoat loyihalari amalga oshirilmoqda.

Qoʻshnilarimiz bilan ayni tanlagan yoʻlimiz iqtisodiy taraqqiyot va savdo aloqalarini rivojlantirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash, sarmoyadorlar uchun ishonchli sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Mintaqaviy siyosiy muloqot yangi bosqichda

Mazkur jarayonda Oʻzbekiston yetakchisi tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi vujudga keldi. Bu uchrashuv mintaqaviy muloqotning yangi davrini boshlab berdi va u oʻz samarasini uzoq kuttirmadi. Bugun eng murakkab masalalar ham biror-bir xalqaro tashkilotlar yoki vositachilar ishtirokida emas, oʻzaro muzokaralar orqali diplomatik yoʻl

bilan hal etilyapti. Qirgʻiz Respublikasi va Tojikiston oʻrtasidagi davlat chegarasini delimitatsiya qilish masalasining uzil-kesil hal etilishi fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. Buning ahamiyati yuksak boʻlib, Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlikni taʼminlashda hal qiluvchi qadam hisoblanadi va mintaqadavlatlari manfaatlariga xizmat qiladi.

Hayotda muhim taktiklarlanmasligi uchun chegara masalasi huquqiy jihatdan aniq hal etilishi juda muhim edi. Shu bois oxirgi yillarda Qirgʻiziston va Tojikiston rahbariyatlari muammoni hal etish uchun jiddiy siyosiy iroda hamda sabr bilan muzokaralar olib bordi. Natijada 2024-yil oxirida davlatlar chegarasining aksariyat qismida uzil-kesil kelishuvga erishildi va aniq chegara belgilari oʻrnatish boʻyicha amaliy ishlar boshlab yuborildi. Bu masalaning tinch diplomatiya bilan amalga oshirilgani tahsinga sazovor. Chegara masalasining muzokara yoʻli bilan hal qilinishi – donishmandlik va birdamlik belgisi. Ushbu jarayon ikki davlat oʻrtasidagi munosabatlarni mustahkamlabgina qolmay, balki butun Markaziy Osiyoda tinchlik va hamkorlik muhitini rivojlantirishda muhim omilga aylandi.

Chegara muammosining hal etilishi, eng avvalo, chegaradoli hududlarda yashovchi aholi uchun ijobiy oʻzgarishlarga yoki keladi. Avvalo, xavfsizlik, davlat xizmatlaridan bemaol foydalanish va iqtisodiy faoliyatni erkin amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa xalq turmush darajasining yuksalishiga xizmat qiladi. Bunday muammolarni qurol bilan emas, aql, mulohaza va oʻzaro hurmat bilan hal qilish muhimligi yana bir bor isbotlandi.

Manfaatli integratsiyaning natijasi

Markaziy Osiyo – bu nafaqat geografik atama, balki oʻzaro ishonch va umumiy kelajak sari qaratilgan saʼy-harakatlar maydoni. Oʻzbekiston esa bu jarayonda faol tashabbuskor va masʼul hamkor sifatida oʻz oʻrnini tobora mustahkamlab boryapti.

Soʻnggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi hamkorlik va integratsiya jarayonlari yangi bosqichga koʻtarildi. Integratsiya nafaqat

O'ZBEKISTON OVOZI BARALLA YANGRADI

Jumladan, Osiyo xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-gumanitar faolligini oshirishga qaratilgan rezolyutsiyani BMT Bosh Assambleyasida ilgari surish tashabbusini bildirdi. Bu tashabbusning hayotga tatbiq qilinishi, o'z navbatida, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli aniqlik institutsional maqomga ega jarayon sifatida bundan keyin ham izchil



davom ettirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, nutqda yoshlarning parlament faoliyati bilan bir qatorda jamiyat hayotining barcha jabhasida

to'laonli ishtirok etishi uchun ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish o'ta dolzarb masala, parlamentlar uchun yangi avlodni tarbiyalash, bu borada samarali xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish kelajagimizning muhim omili ekani ta'kidlandi.

Shu bois milliy parlamentlar hamda Ittifoq faoliyatiga yoshlarni faol jalb qilib, doimiy muloqotni kuchaytirish zarurligi qayd etilib, bu borada Parlamentlararo Ittifoq tizimi doirasida Yoshlar parlamentlari

global platformasiga asos solish va uning ta'sis forumini O'zbekistonda o'tkazish taklifi qilindi.

Prezidentimiz nutqida ilgari surilgan ekologik muammolar va iqlim o'zgarishi, shuningdek, sun'iy intellekt sohasida muhim me'yorlarni belgilash, kambag'allikka qarshi kurashda samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish kabi umumbashariy, o'ta dolzarb masalalarga oid takliflar anjuman ishtirokchilari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Albatta, bugungi tahlikali zamonda parlamentlarning xalqaro hamkorlikdagi faoliyati nafaqat milliy, balki global darajadagi ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni anjuman xalqaro e'tirof hisoblanib, global siyosiy jarayonlarda O'zbekiston ovozining tobora baralla yangrayotganidan dalolatdir.

Robaxon MAHMUDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi "Adolat" SDP fraksiyasi rahbari.

HAMYURTIMIZ YAPONIYA IMPERATORINING ORDENI BILAN TAQDIRLANDI



Poytaxtimizdagi Yaponiyaning O'zbekistondagi elchisi qarorgohida O'zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi Ikuro Xirayama xalqaro madaniyat karvonsaroyi direktori Farrux Usmonovga Yaponiya imperatorining "Chiqa-yotgan quyosh, oltin va kumush nurlari" ordenini tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Rag'bat

Ordenni Yaponiyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Xatori Takashi topshirdi.

Ma'lumot uchun aytish joizki, mazkur orden yuksak darajadagi mukofot bo'lib, unga o'z sohasida yuqori natijalarga erishgan shaxslarga munosib topiladi. Tadbirda so'zga chiqqan elchi

Xatori Takashi imperator ordeni F. Usmonovga o'tgan yillar davomida O'zbekistonda yapon madaniyatini ommalashtirish va ikki davlat o'rtasidagi madaniy almashinuv hamda ijodiy hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan katta hissasining e'tirofi sifatida berilganini qayd etdi.

Abduvali SOYIBNAZAROV
("Xalq so'zi").

Ta'lim

O'ZBEK TALABALARINING "AMERIKA ORZUSI" USHALMOQDA

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida dunyo davlatlari ilg'or oliy ta'lim strategiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Mazkur jarayonda O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ham xalqaro miqyosda raqobatbardosh, bilimli hamda yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj sezilayotgan zamonaviy kasblar bo'yicha ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lidan bormoqda. Mamlakatimizning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, xususan, Xalqaro Nordik universiteti tomonidan AQSh singari rivojlangan davlatlar bilan o'rnatilayotgan samarali hamkorlik bu yo'ldagi muhim va mas'uliyatli qadamlardir.

Bilamizki, AQSh oliy ta'lim tizimi amaliy tadqiqot, innovatsion yondashuv va zamonaviy texnologiyalar o'zida mujassamlagan model sifatida e'tirof etiladi. Shu bois Xalqaro Nordik universiteti jamoasi ushbu mamlakat yetakchi oliygo'ylari – Rovan va Lourenc universitetlari bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'ygan. Ushbu strategik hamkorlik nafaqat tajriba, balki professor-o'qituvchi va talabalar almashinuvi orqali ta'lim sifatini global darajaga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Xususan, yaqinda universitetlarimiz hamkorligi natijasida oliy ta'lim muassasamizning "Ma'lumotlar ilmi" magistratura mutaxasssiliqining uch nafar talabasiqa o'qishning 2-semestri Amerikada davom ettirish imkoniyati yaratildi. Yoshlarimiz bir asrga yaqin ta'lim tajribasiga ega Lourens universitetining yetakchi talabalari safidan joy oldi. Bu ular uchun nafaqat yangi bilimlar olish, balki xalqaro tajriba, yangi tafakkur va texnologik ko'nikmalarni egallashga xizmat qiladigan ulkan maydon vazifasini o'tashiga shubha yo'q.

Qayd etish joizki, Lourens ta'lim dargohi hozirda mintaqaviy universitetlar orasidagi reytingda 54-o'rinni egallab turibdi, shuningdek, AQShdagi texnologik rivojlangan 13 ta universitetdan biri hisoblanadi.

O'zbekistonlik talabalarining universitet jamoasi tomonidan iliq kutib olingani e'tiborga molik. O'sha kuniyoq ta'lim dargohi prezidenti, tanilgi olim, doktor Tarek M. Sobb talabalarimiz bilan uchrashdi. Muloqot samimiy va ko'tarinki ruhda o'tdi. Oliygo'h rahbari talabalarni ushbu ta'lim muassasasining o'ziga xosligi, yangi innovatsion ta'lim dasturlari va imkoniyatlari bilan tanishtirdi. Amerikada o'qish hamda muvaffaqiyatga erishishda zarur amaliy tavsiylar berdi.

Muhimi, nufuzli oliygo'hda bugun talabalarimiz bilimga chanqoqligi va faolligi bilan ajralib turibdi, ilmiy hamda ijodiy yutuqlari bilan professor-o'qituvchilar e'tiborini qozonmoqda. Xususan, yaqinda talabamiz Muzammilxon Muradullayev kichik guruh loyiha menejeri sifatida eng yaxshi taqdimoti uchun professor Victor Allen tomonidan e'tirof etildi. Professor unga yetakchilar uchun loyihalarni boshqarish bo'yicha o'zining yangi qo'llanmasini sovg'a qildi.

Asosiysi, hamkorlik faqat ta'lim bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Masalan, kuni kecha Lourens universitetida ilk bor Navro'z bayrami nishonlandi. O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Xalqaro Nordik universiteti hamkorligida tashkil etilgan ushbu anjuman turli millat vakillarini birlashtirib, o'zbekona qadriyatlarini dunyoga namoyish qilish imkonini yaratgani bilan ham ahamiyatli bo'ldi.

Oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan talabalarimiz tomonidan o'tkazilgan bayram tadbirida turli davlat va millatlar vakillari jamlandi. Tadbir davomida o'zbekona urf-odatlar, milliy taom va liboslar, kuy-qo'shiqlarimiz orqali xalqimiz madaniyati targ'ib qilindi. Qatnashchilarga mehmondostlik an'anamizga muvofiq betakror noz-ne'matlarimiz, mehr va ushukayfiyat, zavqu shavq ulashildi.

Xalqaro Nordik universiteti bugun xalqaro miqyosda ilmiy avlodni shakllantirishga xizmat qilayotgan maydonga aylanmoqda va hamisha bu yo'lda sobitqadamlik bilan davom etadi.

Sherzod MUSTAFOQULOV,
Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor.

Norma ijodkorligi:

XALQCHILLIK VA ZAMONAVIY YONDASHUV — USTUVOR MAQSAD



Loyiha birinchi o'qishda qabul qilinayotganida, qoida tariqasida qonunchilik tashabbusi huquqiy subyekti yoki uning vakili ma'r'ua bilan chiqishi va himoya qilishi ko'zda tutildi. Qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi loyihalarning shakli hamda ularni rasmiylashtirish tartibi takomillashtirildi.

"Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni norma ijodkorligi faoliyatiga zamonaviy yondashuv va yangicha mazmun-mohiyat olib kirdi. To'g'ridan-to'g'ri amalda qo'llanuvchi qonunlarni qabul qilishning yangi, demokratik shakllarini joriy etish, loyihalarni keng jamoatchilik vakillari va ekspertlar doirasida muhokamalardan o'tkazish, shuningdek, ularning xalqaro shartnoma va reytinglarga mosligini o'rganishga ustuvor ahamiyat berildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq qonunchilik taklifi instituti joriy qilindi. Unga ko'ra saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolar, Senat, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) Markaziy saylov

INSON XAVFSIZLIGI BORASIDA KATTA IMKONIYAT

siyosiy va iqtisodiy, balki gumanitar, madaniy, ekologiya va xavfsizlik sohaslarida ham amaliy mazmun kasb etmoqda. Mintaqadagi integratsiya nafaqat tashqi tahdidlarga qarshi birgalikda javob berish, balki keng iqtisodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish, xalqlar o'rtasidagi jamhirlilikni ta'minlash imkoniyatini yarataypti.

Shu o'rinda aytish kerakki, O'zbekiston qo'shnilar bilan avvalgi yillarda bahsli bo'lib kelgan suv-energetika masalalarida ham hamkorlikka tayyor ekanini namoyon etmoqda. Misol sifatida Tojikiston bilan "Rog'un" GESi bo'yicha muloqot qayta tiklangani, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha uch tomonlama kelishuvga erishilganini keltirib o'tish mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, tili va madaniyati mustahkam. Qo'shnilarimiz bilan madaniy almashinuv, ta'lim sohasida stipendiyalar va qo'shma dasturlar kengayib boryapti. Jumladan, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ko'plab akademik hamkorlik shartnomalari imzolaniib, muvaffaqiyatli amalga oshirilaypti. "Ipak yo'li" madaniy merosini saqlash va rivojlantirish sohasida qo'shma loyihalar ro'yobga chiqarilaypti.

Savdo aloqalarining rag'batlantirish uchun chegarao'ldi savdo hududlari tashkil etish, qo'shma investitsiya jamg'armalari faoliyatini jonlantirish, transport yo'laklarini rivojlantirish orqali jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, yirik infratuzilma va sanoat loyihalarini amalga oshirish, tabiiy va suv resurslaridan oqilona foydalanish, iqtisodiyot uchun "yashil" energetika ulushini oshirish integratsiyalashuvning buguni va ertasi uchun ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olingan.

O'zbekiston bu borada uchta ustuvor yo'nalish – mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga katta e'tibor qaratmoqda.

Hamdo'stligimiz va birdamligimiz oldimizda turgan umumiy global masalalarni hal qilishda munosib yechimlar taqdim etadi. Mintaqamizning geografik joylashuvi tashqi savdo yuklarini tashish xarajatlarini ulushi tovar yakuniy qiymatining 50

foiziga yetishini taqozo qilmoqda. Samarali transport yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishilgani Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo hamda Yaqin Sharq bozorlariga chiqishda bir qator yengilliklarni taqdim etadi.

Umumiy maydoni 3 994 000 kvadrat kilometrni tashkil qilsa-da, Markaziy Osiyo mamlakatlari Kaspiy dengizini hisobga olmasa, boshqa katta suv havzalariqa faqat o'zga davlatlar hududi orqali chiqadi. Shu bois o'zaro transport logistikasini rivojlantirish katta zarurat hisoblanadi. Transport va tranzit to'g'risidagi bitimni qabul qilish bo'yicha O'zbekiston taklifining mintaqa davlatlari yetakchilari tomonidan qo'llab-quvvatlangani kelajakka qo'yilgan katta qadam bo'ldi, deb hisoblash mumkin. Bu yo'nalishdagi hamkorlikning muvaffaqiyatli ijrosi umumiy YIM mahsuloti 500 mlrd. AQSh dollari bo'lgan ko'rsatkichni karrasiga oshirishga katta turki ham beradi.

Eng muhimi, mintaqa davlatlarining har bir sohada o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlovining yo'lga qo'yilishi ayni damda dolzarb bo'lib turgan mehnat migratsiyasi masalalarida ham ijobiy yechimlar olib keladi. Millionlab fuqarolar uchun asosiy daromad manbalarini barpo qilishga yordam beradi. Jahon banki ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2024-yil holatiga mehnat muhojirlarining pul o'tkazmalari Tojikiston YIMning 45 foizini tashkil etgan. Qirg'izistonda pul o'tkazmalarining YIMdagi ulushi 24 foizga, O'zbekistonda esa 14 foizga teng. Ushbu raqamlar ham ko'rsatadiki, yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lami juda keng. Ta'lim va ilm-fan bilan inson resurslarini rivojlantirish orqali yangi imkoniyatlarni ishga tushirish mumkin. Natijada chuqur bilimlga ega fuqarolar o'z biznesini yaratish yoki xorijdagi mehnat faoliyati orqali o'z daromadlarini oshirish imkoniga ega bo'ladi.

"Yashil" rivojlanish va "toza energiya" markazi sari

Mintaqa davlatlarining integratsiyalashuvidagi yana bir muhim yo'nalishlardan biri, bu – Markaziy Osiyoni "yashil" iqtisodiy rivojlanish va "toza

energiya" markazlaridan biriga aylantirish maqsadi hisoblanadi.

Hozirgi global iqtisodiy tartibda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi barcha davlatlar uchun ustuvor strategik yo'nalishga aylandi. Xususan, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik xavflar XXI asr insoniyatining oldida turgan dolzarb masalalar sirasiga kirdi. Ushbu global muammolar yechimida Markaziy Osiyo mintaqasi faol qatnashmoqda. Tabiiy resurslarga boy, quyosh va shamol energiyasidan unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan ushbu hudud "yashil" iqtisodiyot va "toza" energiya salohiyati bo'yicha strategik mintaq sifatida namoyon bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlarning "yashil" iqtisodiyotga o'tishdagi umumiy yondashuvi o'xshash bo'lib, mintaqa davlatlari tomonidan bu bo'yicha strategiyalar ishlab chiqilib, qabul qilingan. Jumladan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida "yashil" energetika, "ekologik investitsiyalar" va "iqlim muvozanatini saqlash" borasida aniq maqsadlar belgilangan. O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va inson xavfsizligi uchun katta imkoniyatdir. Bu jarayon tinchlik diplomatiyasining, do'stlik yo'sinatining va davlatlar o'rtasidagi ishonch muhitining haqiqiy samarasidir.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo bilan munosabatlari nafaqat do'stona, balki o'zaro manfaatli va barqaror rivojga yo'naltirilgan. Bu siyosat nafaqat mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, balki umumiy iqtisodiy va insonparvar taraqqiyotga zamin yaratishda ham muhim omil hisoblanadi.

Iqlim o'zgarishi, cho'llanish va suv tanqisligi Markaziy Osiyoda umumiy ekologik xavflardir. Bu borada davlatlar Orol dengizi atrofidagi ekologik ofatni bartaraf etish uchun qo'shma ekoloyihalar amalga oshirmoqda. Suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida mexanizmlar va kvotalar joriy etilyapti. Markaziy Osiyo iqlim forumi, Toshkentdagi iqlim konferensiyasi, "Yashil makon" umummilliy loyihasi kabi platformalar orqali muloqot va tajriba almashinuvi kuchaytirmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari "yashil" iqtisodiyotni nafaqat ekologik barqarorlik, balki iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinalari yaratish uchun strategik vosita sifatida qabul qilmoqda. Tabiiy resurslarga boylik, quyosh va shamol energiyasi salohiyati, yosh aholi ulushining yuqoriligi bu yo'nalishdagi asosiy ustunliklardir.

Kelgusida mintaqaning toza energiya markaziga aylanishi faqat ichki taraqqiyot uchun emas, balki global iqlim himoyasidagi ulushini oshirish nuqtayi nazaridan ham jahon ahamiyatiga ega bo'ladi.

Markaziy Osiyoda davlat chegaralarining uzil-kesil delimitatsiya qilinishi – shunchaki siyosiy kelishuv emas, balki mintaqaviy barqarorlik, iqtisodiy rivoj va inson xavfsizligi uchun katta imkoniyatdir. Bu jarayon tinchlik diplomatiyasining, do'stlik yo'sinatining va davlatlar o'rtasidagi ishonch muhitining haqiqiy samarasidir.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo bilan munosabatlari nafaqat do'stona, balki o'zaro manfaatli va barqaror rivojga yo'naltirilgan. Bu siyosat nafaqat mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, balki umumiy iqtisodiy va insonparvar taraqqiyotga zamin yaratishda ham muhim omil hisoblanadi.

Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Odiljon IMINOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi o'rinsosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Poytaxtimizda "Aholi salomatligini muhofaza qilishning zamonaviy yo'llari va rivojlanish istiqbollari" mavzusida VII xalqaro forum bo'lib o'tmoqda.

TURIZM SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR

fan va amaliyot integratsiyasi asosida tayyorlanadi

Hech bir sohani o'zining huquqiy asoslarini mustahkamlamay turib rivojlantirib bo'lmaydi. Jumladan, turizm yo'nalishi ham. Shu ma'noda, Prezidentimizning 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiyotda ilk marotaba turizm sohasiga strategik sektor maqomi berildi. Natijada yurtimizda turizmning xorijiy hamda ichki turistlarga xizmat ko'rsatuvchi yondosh sohalari va tarmoqlarining ham rivojlanishiga olib keldi.

Chunki bu sohaga strategik tarmoq maqomining berilishi bilan uni iqtisodiyotning yetakchi kuchiga aylantirish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish hamda diversifikatsiyalash, ish bilan bandlikni ta'minlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratildi.

Muvaffaqiyatni ta'minlovchi muhim omil

Har qanday sohani rivojlantirish uchun, avvalo, malakali kadrlarga ehtiyoj seziladi. Bu tabiiy holat. Shu bois yurtimizda masalaning ushbu jihatlarini ham alohida nazoratda.

Ta'kidlash joizki, turizm boshqa sohalardan farqli o'laroq amaliyot bilan keng uyg'unlikni talab etadi, tayyorlanayotgan mutaxassis faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'zlashtirishi kerak.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu borada muhim dasturlamal bo'ldi. Unga binoan, amaliyotda ilmiylikni oshirish, amaliyotning nazariya bilan integratsiyasini yo'lga qo'yish maqsadida mamlakatimizdagi 11 ta oliy ta'lim muassasasi viloyatlar va 31 ta tuman hokimi bilan birgalikda ushbu tumanlar hamda ulardagi 143 ta turizm mahallasining tarixi, yodgorliklari va turistik obyektlari kontentini yaratish, ular asosida kamida 12 ta tilda turizm paketlarini ishlab chiqishi, turizm, iqtisodiyot, tarix, geografiya, servis, xorijiy tillar yo'nalishlarida o'qiyotgan talabalar kamida 2 oylik amaliyotini ushbu hududlarda tashkil qilishi, turizm hamda servis obyektlari ishchilarini o'qitib berishi belgilangan edi.

Ushbu vazifalar ijrosi doirasida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga birkiritilgan Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtakopir, Xo'jayli, Elikqal'a tumanlarida universitetning professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilari va iqtidorli talabalari tomonidan turizm sohasini rivojlantirish maqsadida amaliyot vakillari bilan birgalikda keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, universitetda iqtisodiyot, marketing, turizm, mehmonxona xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarining malakaviy amaliyotlarini ushbu tumanlardagi turizm hamda madaniy meros obyektlarida o'tkazish jarayonlari tashkil etilayotir. Qoraqalpog'istondagi maktablar va kasb-hunar muassasalarida turizm salohiyatini keng targ'ib qilish, kelajak avlod ongini ijobiy shakllantirish maqsadida davra suhbatlari hamda tadbirlar uyushtirilaypti.

Birkiritilgan tumanlardagi sayyohlik

obyektlarining tizimli tahlili o'tkazilib, yangi kontentlar yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Hududdagi turizm obyektlari, tarixiy-madaniy yodgorliklar, turistik marshrutlar, joylashtirish vositalari hamda umumiy ovqatlanish shoxobchalari to'g'risidagi ma'lumotlar yanada boyitilib, xorijiy tillarga tarjima qilinmoqda, ular to'g'risida axborot beruvchi va turli xizmatlarni jamlagan mobil ilovalar hamda platformalar yaratilyapti. Ushbu tumanlarga sayyohlarni keng jalb etish va ularni hududda uzoq muddat mobaynida olib qolish maqsadida mahalliy turizm tashkilotlari bilan hamkorlikda jozibador hamda qiziqarli bo'lgan turizm paketlari ishlab chiqilmoqda.

Shugina emas, Qoraqalpog'istonning turizm salohiyatini oshirish, xorijlik va mahalliy sayyohlarni jalb qilish maqsadida 2023-yildan buyon Elikqal'a tumanida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan mahalliy hokimliklar va hamkor tashkilotlar bilan birgalikda "Yangi O'zbekistonni birgalikda quramiz!" shiori ostida "Sahro sadosi", Xo'jayli "Mizdakxon – muqaddas va sirli maskan", Taxtakopir'da esa "Orol baliqlaridan 99 tur taomlar" kabi festivallar ham o'tkazilib kelinmoqda. Ularda ko'plab mahalliy va xorijlik sayyohlarning ishtiroki ta'minlanayotgani e'tiborga molik.

Mazkur tumanlarda faoliyat olib boruvchi gid-tarjimon hamda ekskursiya yetakchilari uchun turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish borasidagi ishlar ham tizimli amalga oshirilyapti. Xususan, turistlarning oldida o'zini tutishi, nutqi va kiyinish madaniyati, turizm obyektlari to'g'risidagi yetarli ma'lumotlarni bilishi hamda ularni sayyohlarga yetkazishi, ziyorat odobi, tarixiy obyektlarda



xizmat ko'rsatish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarining o'quv rejalari hamda dasturlari tayyorlandi. Bu asosda Taxtakopir, Xo'jayli va Elikqal'a tumanlaridagi turizm va servis xodimlarining malakasini oshirish, mahalliy aholini turizm sohasiga jalb qilish hamda ularning bandligini ta'minlash maqsadida seminar-treninglar yo'lga qo'yildi.

Marketing tadqiqotlarining foydasi

Professor-o'qituvchilar hamda tadqiqotchilari tomonidan yuqorida qayd etilgan tumanlarda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida marketing tadqiqotlari olib borilmoqda.

Natijada turizm sohasi rivojlanishiga ta'sir qiluvchi bir qator kamchiliklar aniqlandi. Xususan, ushbu tumanlardagi 21 ta turistik obyektlar mavjud sayyohlik yo'nalishlariga kiritilmagan. Elikqal'a tumanida ekologik, agro, ov hamda sohil turizmi, arxeologik turizm, Taxtakopir'da sog'lomlashtirish turizmi, Xo'jayli'da ziyorat turizmi imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Hududlarning sayyohlik salohiyati jahon axborot tarmoqlarida



Xorijlik sayyohlar soni oshmoqda

Keyingi yillarda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan:

- xorijiy davlatlardan tashrif buyuruvchilar uchun viza rejimi soddalashtirildi. Ayni paytda **93 ta** xorijiy davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish, **56 ta** davlat uchun elektron kirish vizasi, **47 ta** davlat uchun besh kunlik tranzit vizasiz kirish tartibi belgilandi;
- O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2017 yilda **2,7 mln.**

nafar edi, 2022 yilda **5,2 mln.**, 2023 yilda **6,6 mln.**, 2024 yil davomida **10,2 mln.** nafar (o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 1,5 barobarga oshgan) bo'lgan;

- turistlarning yurtimizda o'rtacha qolishi **7-8 kunni** tashkil etib, o'tgan davr (2-3 kun)dagiga nisbatan **3 baravar** ortgan.

Shuningdek, har bir xorijiy turistning respublika hududida bevosita sayohat xarajatlaridan tashqari sarflaydigan o'rtacha mablag' summasi 2017 yilda **197 AQSh** dollarini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024 yilda **430 AQSh** dollariga yetdi va turizm eksporti hajmi 2024 yilda **3,5 mlrd.** dollar bo'ldi (2017 yilda **531 mln.** dollar edi).

ekskursiya olib borishning uslubiy asoslari, diniy maskanlarda ekskursiya o'tkazish texnikasi, uslublari va tarbiyaviy ahamiyati borasida batafsil ma'lumotlar beradigan qo'llanmalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasamiz professor-o'qituvchilari tomonidan turizm va

deyarli targ'ibot qilinmagan.

Mazkur tumanlarda gid-ekskursovodlar yetishmasligi sababli sayohatchilarga sifatli xizmatlar ko'rsatish imkoniyati past darajada, mavjud turistik obyektlar atrofida turizm infratuzilmasi (sanitariya-gigiyena shoxobchalari, Wi-Fi zonalar, yo'l ko'rsatkichlar)

qoniqarli darajada emasligi aniqlanib, mas'ullar bilan bu borada amaliy ishlar olib borilyapti.

Bundan tashqari, sohaga ilmiy tadqiqotlarni keng jalb qilish maqsadida Turizm qo'mitasi, uning tizim tashkilotlari bilan hamkorlikda Elikqal'a, Xo'jayli va Taxtakopir tumanlarida soha bo'yicha eng muammoli bo'lgan ilmiy tadqiqotlarning namunaviy mavzulari ro'yxati shakllantirildi. Professor-o'qituvchilar hamda izlanuvchilar tomonidan ushbu mavzular bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilayotir. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm boshqarmasi, tuman hokimliklari bilan hamkorlikda ilmiy loyihalar (grantlar) tanlovi o'tkazib kelinaypti.

Vazifalar ko'lami keng

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida turizm sohasida kadrlar tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish, amaliyot bilan integratsiyani yo'lga qo'yish maqsadida ta'lim siyosati ishlab chiqilgan.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 7-fevraldagi "Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2024-yil 18-iyuldagi "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida nazariya bilan amaliyot o'rtasida integratsiyani yo'lga qo'yish, yirik xo'jalik birlashmalari bilan hamkorlikda mutaxassis tayyorlovchi kafedralarning filialini tashkil etish hamda amaliy mashg'ulotlar va malakaviy amaliyotlarga korxona hamda tashkilotlarning yetuk mutaxassislarini jalb qilish vazifasi qo'yilgan.

Shu maqsadda Turizm qo'mitasi hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Bunga asosan Turizm qo'mitasida universitetning Turizm va mehmonxona biznesi kafedrasini filiali tashkil qilindi, ma'ruzalar hamda amaliy darslar soha mutaxassislari tomonidan olib borilmoqda. Doktorant hamda mustaqil izlanuvchilarni ilmiy tadqiqot ishlari muhokamasi va dissertatsiya ishlari himoyasi ushbu qo'mitada ochilgan filialda amalga oshirilmoqda.

Turizm va mehmonxona yo'nalishi bo'yicha o'quv rejalari hamda dasturlarni ish beruvchilar bilan kelishish tizimi yo'lga qo'yildi. Dual ta'lim asosida Turizm hamda mehmonxona biznesi kafedrasida dars berish uchun olib borilayotir. Sohadagi yangiliklar, me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlar bilan tanishtirib borish maqsadida har oyda bir marta turizm va mehmonxona biznesidagi yetuk amaliyotchi mutaxassislar tomonidan professor-o'qituvchilar, talabalar uchun seminar-treninglar hamda mahorat darslari o'tish tizimi yo'lga qo'yildi.

Umuman, turizm sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, mijozlar talabini qanoatlantiradigan hamda xorijiy mamlakatlarning ta'lim muassasalari bilan raqobatlasha oladigan, bilimlari yetishtirish kelajakda sohani rivojlantirish, xorijiy sayyohlarning mamlakatimizga tashrifi oshishi barpo etilayotgan yangi O'zbekistonning kelajagi yorqin bo'lishiga xizmat qiladi.

To'liq TESHABOYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
rektori, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor.

PEKJAMA

"Coca-Cola Ichimligi Uzbekistan, LTD" MCHJ XK

foydalanilgan transport vositalari ochiq savdoga
qo'yilganini ma'lum qiladi.

Takliflarni qabul qilish muddati: 2025-yil 17-aprel
soat 9:00 dan 17-may soat 17:00 gacha.
Transport vositalari va ochiq savdo haqida batafsil
ma'lumot olish uchun quyidagi QR kodni skanerlang.



Qo'shimcha ma'lumotlar uchun quyidagilarga murojaat
qilishingiz mumkin: E-mail: ulugbek.abdullaev1@cci.com.
uz Telefon: 77-099-99-11.



Maxsus vakil yuqori martabali amaldorlar bilan uchrashadi

AQSh davlat kotibi Marko Rubioning ma'lum qilishicha, Prezidentning maxsus vakili 12-aprel kuni Eronning yuqori martabali amaldorlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazadi.

Unda Eron tashqi ishlar vaziri Abbos Araqchi va AQSh Prezidentining maxsus vakili Stiv Uitkoff boshchiligidagi delegatsiyalar qatnashadi.

Eslatib o'tamiz, bir muddat avval Prezident Donald Trump muzokaralar to'g'ridan-to'g'ri o'tkazilishini e'lon qilgan, ammo Eron tomoni delegatsiyalar alohida xonalarda o'tirishini, O'mon diplomatlari esa ular orasida vositachilik qilishini bildirgandi.

Gollivud filmlari importi cheklanadi

"Biz bozor qoidalariga bo'ysunib, auditoriya tanlovini hurmat qilamiz va Amerika filmlari importi sonini sezilarli darajada qisqartiramiz", deyiladi XXR kinematografiya ishlari bo'yicha milliy boshqarmasi bayonotida.

Xabarlariga qaraganda, Xitoyda umumiy kassa yig'imlarining atigi 5 foizini Gollivud filmlari tashkil etadi. O'z navbatida, Gollivud studiyalari XXRda o'z filmlaridan tushgan kassa daromadlarining faqat 25 foizini oladi. Tahlilchilarning fikricha, so'nggi yillarda xitoylik tomoshabinlarning G'arb filmlariga qiziqishi pasayib ketgan.

Bill Geyts boyligining faqat 1 foizini farzandlariga meros goldirmoqchi

"Forbes" nashrining ma'lumotiga ko'ra amerikalik milliarder va filantrop Bill Geytsning boyligi 101 milliard dollardan ortiq.

"Farzandlarim baxtli bolalik va yaxshi ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ammo ular boyligimning 1 foizidan ham kam qismini olishadi. Chunki ortiqcha boyluk ular uchun yaxshilik keltirmaydi, deb o'ylayman", dedi B. Geyts.

U boyligining katta qismi boshqalarga xizmat qilishi kerakligini aytdi. "Bolalar sizning qo'llab-quvvatlovingiz va muhabbatingizga shubhalanmasligi muhim. Shuning uchun ularga yoshligidan o'z falsafangizni tushuntirishingiz kerak: siz ularga bir xil munosabatda bo'lasiz, ulkan imkoniyatlar berasiz, ammo pullarning katta qismi unga muhtoj bo'lganlarga yo'naltiriladi", deydi milliarder. Uning ta'kidlashicha, farzandlari bu qarorni to'g'ri tushunadi va qo'llab-quvvatlaydi.

Kanlaon vulqoni harakatga keldi

Seysmologlarning ma'lumotlariga ko'ra Filippinning Negros orolidagi Kanlaon vulqoni 4 ming metr balandlikka kul otgan. "Euromews" tarqatgan xabarida aytilishicha, vulqon joylashgan hududda uchinchi xavf darajasi e'lon qilindi.

Dengiz sathidan 2465 metr balandlikdagi Kanlaon vulqoni Negros orolining o'rtasida joylashgan. O'tgan yil dekabrda u otila boshlagani sabab atrofda qishloqlar aholisi ko'chirilgan edi.

Mutaxassislarning aytishicha, yaqin vaqtlar ichida xavf darajasi o'zgartirilishi – ko'tarilishi yoki tushirilishi mumkin. Bu magma yer yuzasi tomon qanday tezlikda harakatlanishiga bog'liq.

Aytish joizki, Filippin "Tinch okeani olovli halqasi"da joylashgan. Ushbu hududda vulqonlar faolligi yuqori va tez-tez zilzila sodir bo'lib turadi.

14 ta yangi neft va gaz koni aniqlandi

Konlar aniqlangani haqida Saudiya energetika vaziri, shahzoda Abdulaziz bin Salmon ma'lum qildi.

"Arab News" xabariga ko'ra "Saudi Aramco" neft kompaniyasiga tegishli 14 ta yangi neft va gaz koni davlatning global energetikada yetakchiligini yanada mustahkamlaydi.

Dunyodagi eng yirik neft eksportchisi bo'lgan Podshohlik fevral oyida kuniga 9 million barrelga yaqin neft qazib oldi. Bu Podshohlikning qazilma boyliklari salohiyati keng va o'sishda davom etayotganini ko'rsatadi.

Eslatib o'tamiz, AQSh bojlari sabab dunyoda neft narxi so'nggi 4 yildagi eng quyi darajaga tushdi. Bu 2021-yil fevralidan beri eng past ko'rsatkichdir.

Internet xabarlari asosida
Sharofiddin TO'LAGANOV ("Xalq so'zi")
tayyorladi.

Qori-Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogika ilmiy instituti binosi oldida Toshmuhammad Niyoz o'g'li Qori-Niyoziyning byusti ochildi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir H. Qarshiev.
Musahhih Sh. Mashrabboev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 03.00 Topshirildi — 05.25

1 2 3 4 5 6